

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KITOBXONLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK ZARURIYAT SIFATIDA**Aytmatova Aziza***Toshkent davlat pedagogika universiteti tadqiqodchisi*

Anontatsiya: *Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik jihatlari, ularni kitobxonlikka undash masalalari qonunlar va mutafakkirlarning fikrlari asosida muhokama etiladi. Bo'lajak o'qituvchilarda kitobxonlikning zarurligi xususida fikrlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *o'qituvchi, boshlang'ich ta'lim, pedagogika, zaruriyat, usul, rivojlantirish, ahamiyat, kitobxonlik, tarbiya, madaniyat, psixologiya, metod.*

Аннотация: *В данной статье на основе закономерностей и мнений мыслителей рассматриваются педагогические аспекты развития культуры чтения будущих учителей начальной школы, вопросы поощрения их к чтению. Приводятся мнения о необходимости чтения для будущих учителей.*

Ключевые слова: *учитель, начальное образование, педагогика, необходимость, метод, развитие, значение, чтение, воспитание, культура, психология, метод.*

Annotation: *In this article, the pedagogical aspects of developing the reading culture of future elementary school teachers, the issues of encouraging them to read are discussed on the basis of laws and opinions of thinkers. Opinions about the necessity of reading for future teachers are given.*

Key words: *teacher, primary education, pedagogy, necessity, method, development, importance, reading, education, culture, psychology, method.*

Bugungi kunda mamlakatimizda 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan oliy maqsad -mamlakatimiz taraqqiyotini yanada yuksak bosqichga ko'tarish yo'lida barcha soha va tarmoqlarda ulkan o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Shu nuqtayi nazardan yosh avlodning, o'quvchi va talabalarning g'oyaviy-mafkuraviy jihatdan mukammal tarbiyalanishi ayni maqsadga muvofiq hodisa sifatida jamiyat a'zolarining diqqat markazida turuvchi dolzarb masaladir. Jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an'analarni chuqur qaror toptirishda, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy-intellektual salohiyati, ong-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan omillar bir qancha bo'lib, shulardan eng muhimi - bu kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur yo'nalishda tashkiliy-amaliy ishlarni olib borish va ularni zamon talablariga mos tarzda yo'lga qo'yish bo'yicha tegishli huquqiy-me'yoriy hujjatlar bazasi yaratilgan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezedentining bu sohada ijobiy o'zgarishlar, tub islohotlar amalga oshirishga qaratilgan 2006-yil 20-iyuldagi "Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida"gi qarori, 2011-yil 13-apreldagi "Axborot-kutubxona to'g'risida"gi Qonuni, 2017-yil 12-yanvardagi «Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda

targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida»gi Farmoyishi, 2017-yil 13-sentabrdagi "Kitob maxsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha Kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Qarori asosida yurtimizda keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Mazkur qonun va qonunosti hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash yuzasidan hududlarda Axborot-resurs markazlari faoliyati zamon talablariga mos isloh qilindi, yangi kitob savdo do'konlari faoliyati yo'lga qo'yildi hamda aholiga xizmat ko'rsatish sifat jihatidan ancha takomillashtirildi. Kitobsevarlar o'rtasida o'tkaziladigan ko'rik-tanlovlar respublika miqyosida ommalashtirildi va shaxsan davlatimiz rahbari tomonidan rag'batlantiruvchi sovrinlar belgilandi. Yoshlarning kitob o'qishga ishtiyoqi ortdi.

Xalqimiz turmush tajribasidan ma'lumki, ajdodlarimiz farzand tarbiyasida kitob mutolaasiga alohida e'tibor qaratishgan. Buyuk Navoiy-u Bobur, Amir Temur-u Ulug'bek kabi alloma-yu ijodkorlarimiz, tojdor-u daholarimiz ma'naviyati bolalikdan kitobga mehr qo'yish bilan shakllangan. Ajdodlarimiz xalq ertaklari-yu dostonlarini tinglab tasavvur va tafakkur dunyosini, ruhiyat olamini boyitishgan. Adabiyot durdonalari - xoh xalq og'zaki ijodi namunalari, xoh yozma asarlar bo'lsin - xalqimiz qalbida yurtiga, ona tiliga, oilasiga, vatandoshlariga mehr-muhabbat va sadoqat, milliy g'urur, or-nomus, adolat-u insof, andisha-yu hurmat, olijanoblig-u saxovatpeshalik sifatleri shakllanishida asosiy vosita bo'lib xizmat qilgan. Bunday ma'naviyat durdonalari mutolaa qilingan, tinglangan, eng muhimi, oila davrasida yoki jamoat ichida muhokama qilingan, bahs-u tortishuvlar asosida asarlar mazmun-mohiyati anglangan, anglatilgan. Ahamiyatli shundaki, yosh-u qari birday qiziqish bilan ishtirok etadigan bunday davralarda mushohada qilish va mulohaza yuritish, mantiqiy fikrlash qobiliyati, keng dunyoqarash va tafakkur shakllangan, e'tiqod va iroda mustahkamlangan, notiqlik mahorati o'sgan, kishilar ongi ham ma'nan, ham ruhan, ham ilman boyib borgan.

Oliy ta'lim muassassasi hamda kutubxonalari oldiga quyidagi vazifalarni yechish mas'uliyati qo'yilgan:

- talabalarining kitob bilan o'zaro aloqasini mustahkamlab, ularni kitob o'qishga qiziqtirish, ta'lim-tarbiya jarayonida kitob va boshqa axborot manbalaridan foydalanishga keng imkoniyat yaratish;

- talabani badiiy adabiyotga qiziqtirish, kitob o'qishga bo'lgan ehtiyojini kuchaytirish, uni mustaqil o'qishga o'rgatish, badiiy adabiyot orqali talabalarda badiiy-estetik didni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish;

- talabalarda izchil tarzda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish;

- talabalarining kitobni mustaqil mutolaa qilib, uni ijodiy o'zlashtirishga odatlantirish;

- talabalarda kitob bilan muloqotga kirishish ko'nikmalarini qaror toptirish;

- talabalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda ilg'or axborot texnologiyalaridan foydalanish.

Yoshlarning axloqiy rivojlanishi, ularni insonparvarlik ruhida tarbiyalash masalasiga O'zbekistonda katta e'tibor qaratilgan. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan taklif etilgan mamlakatimizni rivojlantirish va uning mustaqilligini mustahkamlashning strategik vazifalarida ma'nan yetuk, barkamol avlodni va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash hamda ijtimoiy vazifalarni hal etishda jamiyatga yordam ko'rsata oladigan ko'ngilli, milliy g'urur hissi ustun bo'lgan yoshlarni tarbiyalash muhim vazifalardan biri sifatida belgilab berilgan. Bu vazifalarni

amalga oshirishda “biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an’analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz” [1] va o’sib kelayotgan yosh avlodni Sharqona tarbiya asosiga qurilgan umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash jamiyat oldiga ulkan mas’uliyat yuklamoqda.

Talaba yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatini targ’ib qilish ko’pgina zararli illatlarni oldini olishga sabab bo’ladi. I.S.Zbarskiy shaxsda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning uch muhim komponenti bor ekanligini ta’kidlab o’tgan [2]:

1) Kognitiv komponent – talabalarda ma’naviy ongini, badiiy eruditsiyani, dunyoqarashini shakllanishi bilan tavsiflanadi.

2) Emotsional komponent – talabalarda estetik hislar, emotsional qadriyatlar tizimi, oliy hislarning shakllanishi bilan belgilanadi.

Xulq-atvor komponenti – talabalarning ijtimoiy xulq me’yorlariga rioya etish ko’nikmasi, axloqiy dunyoqarashi tarbiyalanadi.



1-rasm. I.S.Zbarskiy bo’yicha kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning komponentlari.

Talabalarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda kutubxonachi pedagogika va psixologiya fanlarini yaxshi bilishi, talabalarda mutolaa qilish psixologiyasini qaror toptirishi, shuningdek, u shaxslararo muloqot psixologiyasi hamda ijtimoiy-psixologiyaga oid bilimlarga ham ega bo’lishi talab etiladi. Kutubxonachi-pedagog estetik jihatdan tarbiyalangan, bilimdon, badiiy didga ega bo’lishi zarur. Rivojlangan mamlakatlarda talabalarga ijtimoiy, pedagogik hamda madaniy kutubxona xizmatini ko’rsatish ularning asosiy hayotiy ehtiyojlarini qondirish sohasiga kiradi. O’qituvchi va kutubxonachining asosiy e’tibori ijodkor shaxs sifatida rivojlanayotgan talabanning kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga qaratilgan bo’lishi lozim. Kutubxonaga mo’ljallangan xonalar talabanning turli manbalardan axborot olishi uchun qulay bo’lishi kerak.

Umuman olganda yuqoridagi fikrlar asosida xulosa qiladigan bo’lsak:

- Talabalardagi kitobxonlik madaniyati ularning ma’naviy dunyoqarashi, axloqiy ongining oshishiga xizmat qiladi;

- Sharq allomalari asarlari, afsonalardagi futuvvat ilmi negizida altruistik motivlarning namoyon bo’lishini kuzatishimiz mumkin;

- Altruizm o’zgalarga beg’araz yordam ko’rsatishga asoslangan milliy xususiyatlardan biridir;

- Maktablarda murabbiylik soatlarida badiiy asar mutoalasini targ’ib qilish orqali talabalarda altruistik xulq motivlarini shakllantirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - T.: O'zbekiston 2017. B.48.
2. Zbarskiy I.S. Vnekalassnaya rabota po literature(4-8): posobie dlya uchitelya. - M.: Prosveshenie, 2010. - 208 s.
3. ALIMOVA, G. (2020). Kichik maktab yoshida o'quvchi shaxsining psixologikpedagogik rivojlanish xususiyatlari. Pedagogik mahorat, 103-107.
4. Alimova, G., & Alimova, A. (2020). Socio-economic conditions for effective entrepreneurial activity. Imperativ sosialnogo partnerstva v osvitno-naukovomu prostori: evrointegratsiyani ta regionalni vikliki sogodennya, 246-250.
5. Раҳмонов, М. (2023). ҲИС-ҲАЯЖОН ВА САЛОМАТЛИК. SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH, 2(15), 55-63.
6. Раҳмонов, М. (2021). СЎЗНИНГ САЛОМАТЛИККА ТАЪСИРИ. Scientific journal of the Fergana State University, (6), 42-42.
7. Uktamovna, M. M. (2023, October). EPITET TARIXI VA NAZARIYASIGA BIR NAZAR. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 127-132).
8. Uktamovna, M. M. (2023). O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA EPITETNING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI. OBRAZLI EPITETLAR. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 2(23), 439-444.
9. Mamadjanova, M. (2023). ESSENTIAL CHARACTERISTICS OF EPITHET. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(10), 89-91.
10. Uktamovna, M. M. (2022). EPITETNING LINGVISTIK TABIATI. IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(8), 26-30
11. Uktamovna, M. M. (2023). TRANSFERRED EPITHET IN ENGLISH LANGUAGE. Научный Фокус, 1(1), 921-924.